



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi prezidenti,
Jamg‘arma faoliyatini boshqarish
va uning mablag‘larini taqsimlash
bo‘yicha kengash raisi

_____ **Sh.A. Ayupov**

2026-yil “___” sentyabr

Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini
taqsimlash bo‘yicha kengash majlisining
4-son BAYONNOMASI

10-sentyabr 2026-yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.A. Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi.

Qatnashdilar:

Kengash a‘zolari, taklif etilganlar (*ro‘yxat bo‘yicha*);
majlisda Kengashning barcha a‘zolari ishtirok etdi. Kengash majlisi vakolatli hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibiga muvofiq qayta taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish va moliyalashtirish to‘g‘risida.

(Ayupov, Ashurov, Jo‘raboyev ... Ayupov)

KUN TARTIBIDAGI MASALA BO‘YICHA:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-maydagi 260 -son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq Kengashning 2026-yil 14-iyuldagi 1-son yig‘ilish bayoniga 2-ilova bilan tasdiqlangan “Reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilishga mablag‘ ajratish tartibi” (keyingi o‘rinlarda – Tartib) asosida taqdim etilgan hujjatlar ko‘rib chiqildi.

Kengashning 2026-yil 2-sentyabrdagi 3-son majlis bayonnomasi bilan kimyo -biologiya fanlari bo'limi bo'yicha **11 ta** hamda fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi bo'yicha **2 ta** – jami **13 ta** tashkilotning ariza va buyurtmanoma hujjatlari Kengash muhokamasida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun qayta ishlashga qaytarilgan.

Hujjatlarga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilgan hollarda yangilangan buyurtmanomani tegishli tashkilot Ilmiy kengashida qayta ko'rib chiqib, ma'qullangandan so'ng Ilmiy-texnik kengash muhokamasiga kiritish belgilangan.

Hozirgi kunda mazkur qaror ijrosi doirasida kimyo-biologiya fanlari yo'nalishi bo'yicha **11 ta** ilmiy tashkilotning qayta ishlangan ariza, buyurtmanoma va unga ilova qilingan hujjatlari hamda Fanlar akademiyasi kimyo-biologiya fanlari bo'limi **Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil 9-sentyabrdagi kengaytirilgan yig'ilishi bayonnomasi va asoslangan xulosasi** Kengash muhokamasiga taqdim etildi.

Ilmiy-texnik kengash tomonidan qayta taqdim etilgan hujjatlar har bir tashkilot kesimida Kengashning 3-son bayonnomasida qayd etilgan kamchiliklar bilan solishtirilgan holda ko'rib chiqildi.

Xususan, yakuniy buyurtmanomaning Ilmiy kengashda ko'rib chiqilganligi, Tartibning 2–4-ilovalari bo'yicha shakl va rekvizitlar, mas'ul ishchi guruh tarkibi, tijorat takliflarini yagona asosda taqqoslash, yetkazib beruvchilarning o'zaro affillanmaganligi, tijorat takliflarining majburiy rekvizitlari, xaridning ilmiy faoliyat yoki tadqiqot dasturi bilan bog'liqligi hamda kutilayotgan ilmiy-amaliy natijalar **qayta baholangan**.

Tartibning 24–25-bandlariga muvofiq Ilmiy-texnik kengash har bir arizani xaridning ilmiy faoliyat va tadqiqot dasturlari bilan bog'liqligi, ehtiyojning asoslanganligi, texnik tavsifning to'liqligi, tijorat takliflarining mavjudligi va o'zaro taqqoslanganligi, boshlang'ich narxning asoslanganligi, so'ralayotgan mablag' hajmining maqbulligi, xarid predmetining Tartib talablariga muvofiqligi hamda kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalarning asoslanganligi mezonlari bo'yicha **qayta baholagan**.

Qayta ko'rib chiqish natijasida **11 ta** ilmiy tashkilotning arizalari bo'yicha Tartibning 25-bandi mezonlariga muvofiq ijobiy xulosa berilgan va jami **12 271 999 344 (o'n ikki milliard ikki yuz yetmish bir million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming uch yuz qirq to'rt)** so'm mablag'ni Jamg'arma mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtirish tavsiya etilgan.

Shundan so'ng, qayta taqdim etilgan ariza va buyurtmanoma hujjatlari hamda Ilmiy-texnik kengash xulosasi MUHOKAMA QILINDI:

Kengash a'zolari tomonidan **11 ta** ilmiy tashkilot bo'yicha qayta ishlangan hujjatlar, Ilmiy-texnik kengashning asoslangan xulosasi, so'ralgan mablag' miqdorlari hamda xarid predmetlari kesimidagi umumlashtirilgan hisob-kitoblar o'zaro solishtirilgan holda ko'rib chiqildi.

Muhokama natijasida Kengashning 2026-yil 2-sentyabrdagi 3-son bayonnomasida kimyo-biologiya fanlari yo'nalishidagi **11 ta** tashkilot bo'yicha qayd etilgan kamchiliklar bartaraf etilgani, arizalar Tartibning 25-bandida belgilangan mezonlar bo'yicha qayta baholangani va moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan mablag' miqdorlari har bir tashkilot kesimida aniq ko'rsatilgani qayd etildi.

Moliyalashtirishga tavsiya etilgan jami mablag' xarid predmetlari kesimida quyidagilarni tashkil etadi:

reagentlar va reaktivlar uchun 11 486 657 320 so'm;

xomashyo uchun 203 257 000 so'm;

sarflor materiallari uchun 532 805 024 so'm;

butlovchi qismlar uchun 49 280 000 so'm.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Kengash a'zosi **T.U. Aripova** Immunologiya va inson genomikasi institutiga, **K.Sh. Tojibayev** Botanika institutiga, **Sh.M. Miralimova** Mikrobiologiya institutiga oid masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmadi.

Fizika-matematika va texnika fanlari bo'limi bo'yicha **2 ta** tashkilotning hujjatlari taqdim etilmaganligi sababli mazkur majlis kun tartibi doirasida ko'rib chiqilmadi.

Kun tartibidagi masalani ko'rib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Kengashning 2026-yil 2-sentyabrdagi 3-son majlis bayonnomasi qarori ijrosi doirasida kimyo-biologiya fanlari yo'nalishi bo'yicha **11 ta** ilmiy tashkilotning qayta ishlangan ariza, buyurtmanoma va unga ilova qilingan hujjatlari hamda Fanlar akademiyasi kimyo-biologiya fanlari bo'limi Ilmiy-texnik kengashining 2026-yil 9-sentyabrdagi asoslangan xulosasi ko'rib chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

Kengash muhokamasiga kiritilgan ariza, buyurtmanoma va ularga ilova qilingan hujjatlarning belgilangan talablarga muvofiqligi, ulardagi ma'lumotlar, hisob-kitoblar, tijorat takliflari va texnik tavsiflarning o'rganilganligi, xaridga bo'lgan ehtiyoj hamda kutilayotgan ilmiy-amaliy natijalarning asoslanganligi, shuningdek, har bir ariza bo'yicha berilgan xulosaning to'liqligi va asoslanganligi uchun tegishli Ilmiy-texnik kengash mas'ul hisoblanadi;

Jamg'arma Kengashi moliyalashtirish to'g'risidagi qarorni Ilmiy-texnik kengashning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xulosasiga asosan qabul qiladi hamda taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar, hisob-kitoblar va asoslantiruvchi hujjatlarning mazmuni hamda to'g'riligi uchun javobgar hisoblanmaydi.

3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg'armasining 2026-yil uchun daromadlar va xarajatlari yillik parametrlari (moliyaviy reja) **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar:

a) Fanlar akademiyasi Jamg'armasi mablag'lari hisobidan **11 ta** ilmiy tashkilotning reagent, reaktiv, xomashyo, sarflov materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun jami 12 271 999 344 (o'n ikki milliard ikki yuz yetmish bir million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming uch yuz qirq to'rt) so'm mablag' **2-ilovaga** muvofiq moliyalashtirilsin;

b) xarid predmetlari kesimida quyidagicha belgilansin:

reagentlar va reaktivlar – 11 486 657 320 so'm;

xomashyo – 203 257 000 so'm;

sarflov materiallari – 532 805 024 so'm;

butlovchi qismlar – 49 280 000 so'm.

5. Moliyalashtirilayotgan tashkilotlar ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishi, xaridlarni qonunchilik hujjatlari va Tartib talablariga muvofiq amalga oshirishi hamda tegishli hisob va tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishi ta'minlansin.

6. Mazkur bayonnoma bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Bayonni tuzuvchi:
Kengash kotibi
M. Nazirov